

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**XAMIDOVA ZAYNURA RAMAZONOVNA**

**STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA 6-SINF TABIIY  
FANLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Xamidova Zaynura Ramazonovna**

STEAM ta’lim texnologiyalari vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....3

**Хамидова Зайнура Рамазоновна**

Совершенствование методики преподавания естественных наук в 6 классе с использованием образовательных технологий STEAM.....29

**Khamidova Zaynura Ramazonovna**

Improving the methodology of teaching 6 classes of natural sciences through STEAM educational technologies .....56

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....64

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**XAMIDOVA ZAYNURA RAMAZONOVNA**

**STEAM TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA 6-SINF TABIIY  
FANLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 –Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.Phd/Ped7181 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://avlonyuz.uz>) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfuddinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xushvaktova Xusnobot Soliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sangirova Zamira Bozorboyevna**  
pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.:(+99871-227-15-44)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (234-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "15" dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "15" dekabrda 35-raqamli reyestr bayonnomasi).



**Raximova Tura**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash rasi, biologiya fanlari doktori, professor

**Allaberdiev Rustamjon Xamraevich**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Jabbarov Zafarjon Abdulkarimovich**

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, biologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi, umumiy o'rta ta'lim maktablarda fanlarni o'qitish jarayonida STEAM texnologiyasidan foydalanish, ilmiy bilimlarning tez rivojlanishi shartida integrativ yondashuv asosida tabiiy fanlarni o'qitish sohasida tizimli ishlar olib borilmoqda. AQSh Milliy Muhandislik Akademiyasi va Milliy Fan Akademiyasi (National Academy of Engineering, National Academy of Science), Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya ta'lim muassasalarida STEM ta'limini joriy etish, milliy ta'lim standartlari ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga ustuvorlik berilmoqda. STEM ta'limini amaliyotga joriy etish maqsadida xalqaro (MASCIL, INSTEM, Mind the Gap, ER4STEM kabi) loyihalarning bajarilganligi<sup>1</sup>, mazkur integratsiyalashgan ta'lim yo'nalishida zamonaviy kompetentli kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Dunyo ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'qitish metodlari, texnologiyalari va modellarini yangilash, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ratsional foydalanish, o'quvchilarning emotsional intellektlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalarni yaratish zamonaviy va milliy interfaol metodlar yaxlitligini ta'minlash, mashg'ulotlarni fanlaralo aloqadorlikda olib borish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, ularni rivojlantirish, fanlarni o'qitish jarayonida turli texnologiyalarni qo'llash hamda nazariy bilimlarni amaliy loyihalarga uyg'unlashtirish, o'quvchilarning izlanuvchanlik, ijodkorlik, qiziquvchanlik, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, konstruktiv yondashuv asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim jarayonlari izchillik bilan rivojlantirishda zamonaviy innovatsion ta'lim imkoniyatlari kengaytirib yoshlarni texnologik jihatdan rivojlangan muhitda faoliyat yuritishiga tayyorlashning meyoriy asoslari yaratilib "...STEAM fanlarini hisobga olgan holda innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beruvchi yangi davlat ta'lim standartlari va dasturlarini joriy etish lozim"<sup>2</sup>ligi ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, o'qitish jarayonlarini zamonaviy va milliy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda takomillashtirishda STEAM texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini kengaytirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

---

<sup>1</sup> The National Academies of SCIENCES · ENGINEERING · MEDICINE Learn more about the National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine [Elektron resurs]. - URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK424928/>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлар тўплами, 29.04.2019 й., 6/9/5712/3034-сон, 2019 йил.

to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmonlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorlar hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda STEAM yondashuv asosida o'quv-loyiha ishlarini tuzishga yo'naltirilgan muammolarni o'rganish, tadqiqotchilik ko'nikmalarni rivojlantirish yuzasidan Z.B.Sangirova, K.T.Suyarov, Sh.R.Turdiyev, N.I.Kim, M.X.Tashibekova, L.I.Suvonova, X.N.Xasanova, N.Sh.Urinovalar tomonidan STEAM integratsiyalashgan ta'limni joriy etishning nazariy va uslubiy asoslari, R.X.Djurayev, B.S.Abdullayeva, S.Qahhorov, N.N.Azizxodjayeva va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida fanlararo integratsiya orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'lim oluvchilarda kreativ dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida V.N.Chemekov, D.A.Krilov, S.A.Lovyagin, L.D.Kudryavsev, B.V.Gnedenkolar STEAM ta'limini amalga oshirishning nazariy asoslari, T.V.Volosoves, V.A.Markova, S.A.Averin, Y.A.Kuzmina, N.V.Yashina, I.G.Kroxina, L.P.Simonova, T.G.Nikolenkolar kabi tadqiqotchilar ishlarida STEAM kompetensiyasini shakllantirish orqali tabiiy fanlarni o'qitishda samaradorlikka erishish yo'llari hamda ushbu ta'lim dasturlarini joriy etish bilan bog'liq muammolariga oid ishlar tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash va tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanish masalalari A.M.Conor, E.P.Torrance, H.Noh, O.Hong K.Heo tomonidan, W.Jeong, H.Lee, K.Kim, E.Smith, N.Hermita, J.Alim, Z.Putra, D.Nasien, H.Wijoyo tomonidan tanqidiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirishda STEAM texnologiyasidan foydalanishga oid tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "2018-2022 yillarga mo'ljallangan STEAM ta'lim texnologiyasini joriy qilishning ilmiy metodik asoslari" ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini zamonaviy o'qitish texnologiyalari va kasbiy kompetensiyalar asosida takomillashtirish;

STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining modelini takomillashtirish;

STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni o'qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayonlari tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar, Namangan viloyati hamda Surxondaryo viloyati umumta'lim maktablarining 408 nafar o'qituvchi va 632 nafar o'quvchilari ishtirok etgan.

**Tadqiqot predmetini** 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'qitish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tajriba-sinov, modellashtirish, loyihalashtirish so'rovnoma, test, suhbat, o'zaro dars tahlili, seminar-trening, adabiyotlar, me'yoriy-hujjatlar, xorijiy tajribalarni o'rganish, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

6-sinf uchun tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik imkoniyatlari subyekt-resursli simulyativ ma'lumotlarning kognitiv-operatsion o'zlashtirilishiga ko'ra o'quvchilarning ijodiy tafakkurining kontekstual sinxron barqarorligiga muvofiq interpretativ baholash asosida aniqlashtirilgan;

6-sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni ta'limiy-ijodiy loyihalarning raqamli-kreativ konstruktlariga ko'ra funksional komponentlarning individual va frontal dispoziv strategik algoritmlar orqali semantik assimlasiyalanishi asosida aniqlashtirilgan;

6-sinfga tabiiy fanlarni o'qitish modeli o'quvchining kognitiv, motivasion jihatlarini 5E va 3S+2E texnologik mikro modellar algoritmi orqali rivojlanishiga asoslanib kreativlik qobiliyatini ilmiy senzitivlikning ta'siriga mos holda didaktik fasilitasiyalash komponentini kiritishga ko'ra takomillashtirilgan;

6-sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining samaradorligi o'quvchilarda fanlararo bilimlar mobilligi orqali intellektual qobiliyatning "kognitiv-amaliyot-motivasiya-dizayn fikrlash" kreativ dispozitsiyalari asosida kompensatorlik asosidagi o'zaro ta'sirga ko'ra integrasiyalashuvi orqali oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tabiiy fanlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda fanlarni integratsiya asosida o'qitish, loyihalash, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni tashkil etish 5E modeli orqali o'qitish metodikasi amaliyotga joriy etilgan;

tabiiy fanlarni STEAM ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishda o'qituvchilar kasbiy rivojlantirish kursi uchun "Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda yangicha yondashuvlar", "Tabiiy fanlarning nazariy va amaliy asoslari" modullari bo'yicha o'quv reja va dasturi ishlab chiqilgan, ushbu modul tarkibidagi mavzularning kontentlari (ma'ruzalar matni, taqdimot materiallari, texnologik xaritasi, test savollari)ni ishlab chiqishda foydalanilgan va o'quv jarayoniga tadbiiq etilgan;

6-sinf tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasi doirasida fanlararo integratsiya orqali "5E", "GRASPS" modellaridan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni hal qilishga doir mashq daftarlar yaratilgan;

O'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarliklarini oshirishga xizmat qiluvchi fanni STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida o'qitishga doir ishlanmalarni o'zida qamrab oluvchi tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

STEAM texnologiyasini kichik yoshdagi o'quvchilarga ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan multimedia ishlari tayyorlanilgan va ular RTM saytlariga joylashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervyularda keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati erishilgan natijalar ta'lim tizimida STEAM texnologiyasining ta'lim tizimi taraqqiyotidagi samaradorlikni yanada yuksaltirish modellari, o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, ilmiy tadqiqotlar olib borish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi takomillashgani, taklif etilgan model va metodika uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida, tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishda, o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda hamda o'quvchilarning izlanuvchanlik, ijodkorlik, qiziquvchanlik, kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi va texnologiyalarini rivojlantirish, mazkur masalaga doir ilmiy va nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan taklif va mulohazalar tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish, STEAM maktablarini joriy etish, STEAM texnologiyasi standartlari va dasturlarini ishlab chiqish, o'quv resurslarini yaratish fan o'qituvchilarining

integrativ yondashuvlari, davriy va kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyalarini oshirish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

6-sinf uchun tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik imkoniyatlari subyekt-resursli simulyativ ma'lumotlarning kognitiv-operatsion o'zlashtirilishiga ko'ra o'quvchilarning ijodiy tafakkurining kontekstual sinxron barqarorligiga muvofiq interpretativ baholash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish-2022" nomli amaliy loyihaning bajarilishida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2025-yil 8-fevraldagi 11-05-878/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim muassasalari tabiiy fanlar fani o'qituvchilari uchun "Tabiiy fanlar fanidagi yangiliklar hamda tabiiy fanlar fanini o'qitishning dolzarb masalalari" o'quv moduli bo'yicha kontentlar yaratilgan.

6-sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni ta'limiy-ijodiy loyihalarning raqamli-kreativ konstruktlariga ko'ra funksional komponentlarning individual va frontal dispozitiv strategik algoritmlar orqali semantik assimlasiyalanishi asosida aniqlashga oid tavsiyalar Milliy o'quv dasturi loyihasida yaratilgan 6-sinf "Tabiiy fanlar" darsligini mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2025-yil 8-fevraldagi 11-05-878/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'qituvchilarni STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish hamda kreativlik, tanqidiy fikrlash va kommunikativlik ko'nikmalari rivojlantirishga erishilgan.

6-sinfga tabiiy fanlarni o'qitish modeli o'quvchining kognitiv, motivasion jihatlarini 5E va 3S+2E texnologik mikro modellar algaritmi orqali rivojlanishiga asoslanib kreativlik qobiliyatini ilmiy senzitivlikning ta'siriga mos holda didaktik fasilitasiyalash komponentini kiritish asosida aniqlashga oid tavsiyalar "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish-2022" nomli amaliy loyihaning bajarilishida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2025-yil 8-fevraldagi 11-05-878/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada STEAM texnologiyasi hamda loyiha doirasida tayyorlangan kontent materiallari orqali o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi oshirilgan.

6-sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining samaradorligi o'quvchilarda fanlararo bilimlar mobilligi orqali intellektual qobiliyatning "kognitiv-amaliyot-motivasiya-dizayn fikrlash" kreativ dispozitsiyalari asosida kompensatorlik asosidagi o'zaro ta'sirga ko'ra integrasiyalashuvi orqali oshirishga oid tavsiyalar "O'zbekiston 24" teleradiokanali "Axborot 24" dasturlarida efirga uzatilgan "Ta'lim tizimida xalqaro hamkorlik" mavzusidagi lavhalarni tayyorlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2025-yil 8-fevraldagi 11-05-878/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada STEAM ta'lim texnologiyasini o'qituvchilarda kreativ qobiliyatini shakllantirishga ta'siri va uning rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ishlar, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarida 11 ta maqola shundan 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 139 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, mavzu bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida tabiiy fanlarni o'qitishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlanib, tadqiqot muammolariga oid ta'limda fanlararo integratsiyaning nazariy va uslubiy asoslari, tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari, o'quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonligi va ularning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muammolar, STEAM ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayoniga intensiv integratsiyalashuvi va rivojlanish bosqichlari, STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini ta'limiy maqsadlarga identiv moslashtirish, STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash va o'quv dasturlarini o'rganish, tadqiqot muammolari bo'yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan bo'lib, unda O'zbekiston, MDH davlatlari va xorijiy tajribalar qiyosiy o'rganilgan va nazariy metodologik jihatdan tahlil etilgan.

Hozirgi kunda o'qitishning zamonaviy yondashuvlari, tamoyillari asosida o'qitish jarayoni elementlarini loyihalash, o'rganishning usullari va qoidalarini individuallashtirish, berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, qo'llaniladigan didaktik vositalar kommunikativligi va axborotligi, ta'lim olishga yuqori motivatsiya uyg'otishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida o'qitishning zamonaviy integrativ yondashuvi ta'lim tizimiga yuqori sur'atlarda implementatsiya qilinishi, yondashuvlar asosida o'qitish jarayonida ilg'or texnologiyalarni tizimli tatbiq etish, ta'lim jarayonidagi turli bilimlarni sintez qilish, fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodkorligi, kreativligi, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajara olishi, loyihalash, hayotiy kontekstlar yaratish, tanqidiy fikrlash va ta'lim olishga yuqori motivatsiyani uyg'otishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida STEAM texnologiyalarini qo'llash metodikasining didaktik imkoniyatlari, fanlararo aloqalar, ijodiy fikrlash va

hamkorlik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish hamda muammoni yechish mobilligini oshirish, STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida tabiiy fanlarni o'qitishda intensiv integratsiyalashuv, nazariy va amaliy jihatdan o'qitishning turli didaktik imkoniyatlarini moslashtirgan holda amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Tahlillar STEAM yondashuvining asosiy maqsadi an'anaviy ta'limga xos bo'lgan izolyatsiyani amaliy muammolarni hal qilish va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan o'quv fanlar o'rtasida integrativ aloqalarni o'rnatish kerakligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligiga, o'quvchilarning tabiiy fanlarga munosabati, o'qitishda STEAM talim texnologiyasidan foydalanishda fanlararo aloqalar va integrativ yondashuv orasidagi o'xshash va farqli jihatlari, yutuqlari va kamchiliklari, buni amalga oshirishda yuzaga keladigan to'siqlar, bahs-munozarali holatlarga alohida etibor berildi va tahlil qilindi.

Tabiiy fanlar va STEAM fanlari o'rtasidagi bog'liqlik tomonlari o'qitish mazmunini uyg'unlashtirish, individuallashtirish, intellektuallashtirish, beriladigan ma'lumotlarni ijodiy qabul qilish, ta'lim olishga yuqori motivatsiya uyg'otish, turli sohalardagi bilimlarni o'zaro boyitish, bilim va ko'nikmalarni uzluksiz zanjir orqali bog'lash va barcha bosqichlarni qamrab olish orqali shaxsning hayotiy va kasbiy kompetensiyalarini kreativlik qobiliyatlarini ta'limiy maqsadlarga identiv moslashtirish, modellashtirish va dasturlash texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash asosida takomillashtirishni talab qiladi.

Integrativ yodashuv, nazariy va amaliy bilimlarni integrativ yaxlitlashga maqsadli yo'naltirish ta'lim mazmunini yangilash strategiyasini shakllantirishning asosiy xususiyatlaridan biridir. Hozirda amaliyotga joriy etilgan tabiiy fanlar darsligi, mashq daftari va o'qituvchi kitobi fizika-astronomiya, biologiya, kimyo va geografiya fanlari integratsiyasi asosida tuzilgan bo'lib, tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish va tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy talablar, olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyosdir va bu tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM talimi texnologiyasidan foydalanishda hamda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, muammolarni ilmiy tadqiq etish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ushbu muammolar yuzasidan mamlakatimizning bir qator olimlari tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, STEAM ta'lim texnologiyasi tahlili asosida uning turli sohalarga yo'naltirilganligi va har bir shaklning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, rivojlanish bosqichlarini o'zbek olimalaridan M.Tashibekova 2022-yilda o'zining dissertatsiya ishida batafsil yoritib bergan. Unga ko'ra STEAM fan, texnologiya, muhandislik, va san'atni matematika bilan birlashtirish asosida o'rganishga mo'ljallangan ta'lim texnologiyasi.

Tadqiqotchi “STEAM-ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o’qitishning turli zamonaviy usul va shakllarining o’zaro integratsiyalashuvini ta’minlaydigan kontekstlar, elektron vositalar, tarqatma hamda tabiiy vositalar yordamida amaliy bilimlarni egallashga qaratilgan jamoaviy, guruhviy va individual shakldagi tajribalarga asoslangan loyihaviy faoliyatdir” - deya mualliflik ta’rifini bergan.

STEAM yondashuvi asosida tabiiy fanlar o’quvchilarning ijodiy va kreativ fikrlashga undashi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Z.Sangirova ta’biri bilan aytganda-tabiiy fanlarni o’qitilishi o’quvchilarda tabiiy-ilmiiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda fanlarning o’zaro integratsiyasi obyekt tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglashi, ularning tafakkurida olamni yagona tabiiy-ilmiiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Tabiiy fanlarni o’qitishda STEAM ta’limiga tadqiqotchi Sh.Turdiyev “bu fanlar tabiatan ikki holatni o’zida namoyon qiladi: birinchisi matematika, dizayn va tabiiy fanlar nazariy holatlarni yoritib ikkinchisi muhandislik va texnologiya fanlari amaliy yo’naltirilgan holatlarni aks ettiradi. Shunday qilib nazariy olgan bilimlarni amaliyotga qo’llashda birinchi va ikkinchi holatlarning o’zaro bog’liqligini tushuntirishda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish muhim sanaladi hamda bu ta’limni amalga oshirishda STEAM fanlari ta’limi va integratsiyasi yuzaga keladi” – deya o’zining ta’rifini berib o’tadi.

Z.Ashurova “STEAM texnologiyasi bu-bolalarning har tomonlama intellektual bilimlarni egallashni ta’minlovchi tayanch va rivojlanish sohasiga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi turli faoliyatlar mazmunini nostandart usullar integratsiyasi asosida amaliy ixtirochilik faoliyatini bajarishga yo’naltirilgan, milliy qadriyatlarga asoslangan holda tadqiqotchi “olim bola”ni hayotga tayyorlovchi texnologiyadir”–deya ta’riflagan.

Xitoylik Ning Fang–“STEAM tushunchasi bu fanlararo va fikrlash tizimlari to’plamidir. Talabalar o’z amaliyotlari orqali turli fanlar o’rtasidagi aloqalarni tushunish orqali fikrlash mantig’i, fazoviy tasavvur va ijdokorlikni rivojlantiradi”.


Rossiyalik R.Semyonova–“STEAM hozirgi kundagi eng kuchli kombinatsiya hisoblanib, jamiyat uchun fanlar va o’qitish usullari, shuningdek ko’plab mamlakatlar qabul qilgan milliy strategik ustuvor vazifa hisoblanadi. STEAM atamasi tabiiy-ilmiiy, kompyuter va matematik, arxitektura va muhandislik ish turlarini o’z ichiga olgan kasbiy bandlik strategiyasidir”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta’limida STEAM texnologiyasidan foydalanishning xususiyatlari bo’yicha tadqiqot olib borgan Kim Irina Nikolayevna fikriga ko’ra “o’qitish jarayonida bolalarda miyaning chap “mantiqiy” yarim shari, balki ijodiy vazifalarni amalga oshirish hisobiga o’ng “kreativ” yarim shari ham faollashishi STEAM ta’limining xususiyatlari sanaladi” – deya ta’riflaydi.

STEAM ta’lim texnologiyasi va uning ta’lim tizimidagi ahamiyati borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, “STEAM ta’limi–bu o’quv jarayonida tabiiy va aniq fanlar bilan san’atni uyg’unlashtirib, o’quvchilarda kreativ tafakkur, texnologik innovatsiyalarni tushunish, muhandislik yondashuvi va ilmiy izlanish

ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi. U nafaqat an'anaviy fanlar bo'yicha bilim berish, balki muammolarni tahlil qilish, tadqiqot olib borish va jamoaviy hamkorlikda yechim topish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga ham asoslanadi. STEAM ta'limining asosiy maqsadi–nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish orqali innovatsion yechimlar yaratishga qodir, har tomonlama rivojlangan shaxslarni tayyorlashdir”.


Hozirda butun dunyo mamlakatlarida STEAM mutaxsisslarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu jumladan mamlakatimizda ham STEAM ta'lim dasturlarining yaratilishi va STEAM ta'limiga o'tish tashabbusi bilan ta'lim tizimida STEAM ta'limiga javob bera oladigan pedagoglarga bo'lgan talab ham ortmoqda. Malaka oshirish kurslarini tashkil etishda bizning nazarimizda quyidagilarga e'tibor berish orqali o'qituvchilarni STEAM ta'limi bo'yicha kasbiy komponentlarini oshirish imkoniyatini beradi (1-rasm).



**1-rasm. O'qituvchilarni STEAM ta'limi bo'yicha kasbiy komponentlarini oshirish imkoniyatlari**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida tabiiy fanlarni o'qitish integrativ yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, tadqiqot davomida fan o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining tahlil etilishi faqat fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi, balki tadqiqotchilik ko'nikmalarini ham rivojlantirish kerakligini ko'rsatadi.

O'qituvchilarning STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarga oid loyiha ishlarini rejalashtirish, o'tkazishning pedagogik imkoniyatlari orqali ularda mavjud muammo yuzasidan ilmiy gipoteza yaratish va fanga oid ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan (2-rasm).



**2-rasm. An'anaviy va STEAM ta'lim jarayonlarining bosqichma-bosqich taqqoslanishi**

An'anaviy darslarda o'quvchilarning STEAM fanlariga oid bilim ko'nikma va malakalarini chuqur shakllantirishda, ularning aniq maqsadga erishish, qat'iyatlilik, innovatsiyalarga ochiqlik, insoniylik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yetarlicha samaradorlik ko'rsatmayapti. Shu sababli, loyiha ishlari asosida o'quvchilarning STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni integrativ yondashuv, hamda zamonaviy metodlar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilib o'tilgan tahlillar asosida mualliflik ta'rifimizga ko'ra o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligi, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, didaktik ta'minot, integrativ yondashuv, loyihaga asoslangan ta'lim, ilmiy jarayon ko'nikmalari haqida doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni o'rganishimiz natijasida rivojlanadigan davomiy jarayon sifatida tushuniladi va STEAM fanlariga oid o'quvchilarning kompetensiyalarini loyiha ishlari asosida rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish tizimi samarali ta'minlanib, ularni mustaqil fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni ilgari suruvchi va insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning usullari va vositalari, 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llashning takomillashtirilgan modeli, STEAM ta'lim texnologiyasi yordamida 6-sinf tabiiy fanlarini o'qitishning didaktik ta'minoti va uning metodologik jihatlari yoritilgan.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarlik holati, tabiiy fanni o'qitishda va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari tayyorgarliklarini rivojlantirishning didaktik modeli, o'quv darslik dastur, o'quv va metodik qo'llanmalarning mazmuni, tuzilishi, o'quv jarayonni integrativ yondashuv asosida muammoni tanqidiy, loyihaga va so'rovga asoslangan ta'lim

texnologiyasi (SAT), 5E va 3C+2E modeli, SQ3R, PAMPING, metodlari asosida tashkil etish metodikasi masalalari yoritilib berilgan.


Tabiiy va virtual shaklda integratsiyalashgan holda tashkil etish va o'tkazish metodikasi asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish tuzilmasi, didaktik modeli hamda mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida tabiiy fanlarni o'qitishning didaktik modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

Modelning tarkibiga maqsad va mazmuni belgilashda konseptual komponentlar, mazmun metodlar, nazorat va baholash detallari (komponentlari)ni o'z ichiga oladi. Modelning maqsad va mazmunini belgilash komponenti qismida modelning maqsadi, tabiiy fan o'qituvchilarining kasbiy bilimlari, ko'nikma, shakl, metod, vositalar, baholash mezon va ko'rsatkichlaridan iborat.

Model Davlat ta'lim standartlariga muvofiq, STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarda atrof muhit fanlariga bo'lgan munosabat, olamni o'rganishga ishonch tuyg'ularni hosil qilish, tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, gipoteza yaratish, hodisalarni o'rganishda asboblardan to'g'ri foydalana olish, fanga oid tushuncha va kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanishda fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, loyihalash, modellashtirish, ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilib olingan hamda tajriba-sinov amaliyotiga tadbiq etilgan.

Modelning konseptual komponentida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini loyiha ishlari, modellashtirish asosida rivojlantirish – integratsion, differensial, korporativ, aralash, loyihaviy, individual, mustaqil, Blum taksonomiyasi, kompetensiyaviy yondashuvlar va mustaqillik va faoliyatga yo'naltirish, amaliy natijaga erishish, muloqot va hamkorlik, refleksiya, o'z-o'zini baholash, moslashuvchanlik, individual rivojlanishga yo'naltirish tamoyillari asosida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Modelning konseptual komponenti o'quvchini loyiha faoliyatiga yo'naltirish va bu orqali STEAM fanlariga oid kompetensiyalarni rivojlantirish maqsad qilingan.

Modelning mazmun komponenti o'quv-metodik tayyorgarlik, o'quvchilarning STEAM fanlariga oid kompetensiyalarini loyiha ishlari asosida rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturi bo'yicha tabiiy fanlarga oid asosiy tushunchalar va qonuniyatlar, loyiha ishlari uchun zarur metod hamda texnologiyalar, tajribalar va amaliy faoliyatni tashkil etish asoslari, natijalarni taqdim etish texnologiyalari, nazariy asoslari, kasbiy rivojlanishning metodik ta'minot va metodik tavsiyalardan iborat ekanligi belgilangan.



**3-rasm. STEAM ta’lim texnologiyasi vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirilgan modeli**

Texnologik komponentda o'quvchilarning STEAM fanlaiga oid kompetensiyalari va tabiiy-ilmiy savodxonligining rivojlanishi tadqiqot, integrativ, amaliy, axborot, ijodiy va texnologik loyiha ishlarini bajarishlari uchun pedagogik texnologiyalar, metodlar va vositalar nazarda tutiladi.

Modelning baholash komponentida o'quvchilarining STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni o'qitishni loyiha ishlari asosida rivojlantirish metodikasini samaradorligi mezonlari anketa-savol topshiriqlari, test topshiriqlari shakllarida belgilandi hamda yuqori, o'rta va past darajalarga ajratilgan. Bu loyiha ishlari asosida STEAM fanlariga oid kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida o'quvchining natijasini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bosqichdir. Baholashda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish uchun individual yo'nalishlarni belgilash ko'nikmalarini shakllantiradi. Baholash mezonlari yuqori (muloqot va hamkorlikda yuqori darajada ishtirok etadi, nazariy bilimni puxta egallagan, kreativ yondoshgan, loyiha ishlarida STEAM fanlariga oid barcha bilimlardan foydalangan), o'rta (muammoni hal qilish, tadqiqot olib borish ko'nikmalari yaxshi, biroq loyiha ishlarida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan) va past (faqat tahliliy fikrlash yoki o'zini baholash mavjud, biroq chuqur emas) kabi darajalarga ajratilgan.

Ushbu mezonlarni amalga oshirish nafaqat o'quv dasturlari mazmunini maksimal darajada optimallashtirish STEAM talim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni samarali o'qitish muammosiga eng muhimlarini jamlash, uni zamonaviy talim ehtiyojlariga, rivojlanish an'analariga, shuningdek, fan o'qituvchilarining kasbiy qiziqishlari va talablariga yaqinlashtirish imkonini beradi.


Zamonaviy ta'lim metodlaridan yana biri sifatida savol berish yondashuviga asoslangan 5 E modeli ham aynan 5-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda juda katta yutuq va natijadorlikka erishishga keng yo'l ochib berishi bilan birgalikda o'quvchilarning ijodiy va kreativ hamda o'zining mustaqil fikrlarini bildirish imkoniyatini berishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur yondashuv dars jarayonida savollar berish orqali fanga oid bilim va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv qo'yilgan savolga javob topish, javobni izohlash va baholash, muammoni aniqlash va hal etish, mulohaza yuritish orqali o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi.

Mazkur yondashuvning ahamiyati ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Bu o'quvchilarga:

- mavzu mazmunini chuqurroq va izchil o'rganish;
- egallagan bilimlarini tushuntirish va qo'llash;
- ko'proq va mavzuga aloqador savollar berish;
- taqdim etilgan o'quv materialini tushunish;
- faol o'rganuvchiga aylanishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida tabiiy fanlarni o'qitishni loyiha ishlari asosida tashkillashtirish, o'qituvchi va o'quvchilarning samarali o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish oqituvchining faol o'rganishga yordam beradigan, hamkorlikka asoslangan, o'quv dasturlarining oziga xos konteksti va maktab talimi bilan uyg'un bo'lgan kasbiy rivojlanish muhitida amalga oshadi. O'z navbatida, samarali kasbiy rivojlanishning



tadqiqotga asoslangan komponentlari konstruktiv ta'lim muhitining ko'plab xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Muammoga, loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyalari, so'rovga asoslangan 5E hamda 3C+2E modeli integrativ ta'lim muhitining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida kabul qilinishi yoritib berilgan(4-rasm).



**4-rasm. 5E hamda 3C+2E modellari asosida darslarni tashkil etishning metodik tuzilmasi**


Tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitish metodikasi o'quvchilarning chuqur bilim olish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu metodik tizimda tadqiqot, integrativ va amaliy loyihalar asosida dars jarayoni tashkil etilib, o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlaydi va sinovdan o'tkazish va o'z-o'zini baholash kabi bosqichlardan tashkil topgan bo'lib undan foydalanish loyiha ishlarining samaradorligini yanada oshiradi (5-rasm). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki loyiha ishlarida amaliy-tadqiqot metodlari, innovatsion metodlar, so'rovga asoslangan ta'lim metodi (SAT), "Nega? Nima uchun? Qanday?" metodi,

loyihalash, modellashtirish, statistik tahlil va ma'lumotlar yig'ish metodi, kontent tahlili, tadqiqotni loyihalash metodlarni qo'llash natijadorligi aniqlandi va amaliyotga joriy qilindi.



### 5-rasm. STEAM loyihalari asosida tabiiy fanlarni o'qitish, tashkil etish va o'tkazish, samaradorligini taqdim etish metodikasi

Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) va SQ3R (Survey, Question, Read, Recite, Review) metodlari tabiiy fanlarni o'qitishda samarali usullar sifatida keng qo'llanilmoqda (6-rasm).



### 6-rasm. STEAM va SQ3R metodlari integratsiyasi metodik tuzilmasi


SQ3R metodi o'quvchilarning matn bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan va ular o'zlashtirayotgan mavzuni tizimli o'rganish imkonini beradi. Metod besh asosiy bosqichdan iborat bo'lib, tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM va SQ3R metodlari birgalikda qo'llanilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi. STEAM orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va SQ3R yordamida nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- Ijodkorlik va izlanish. O'quvchilar ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiradilar;

- Ta'lim samaradorligini oshirish. Fanlarni chuqurroq o'rganish va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyati yaratiladi.

Tabiiy fanlarni zamonaviy yondashuvlar yordamida o'qitish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. PAMPING o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, muammoli vaziyatlar yaratish, integratsiya orqali mavzularni yaxlit ko'rinishda o'rganish va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. PAMPING metodikasidagi integratsiya STEAMning asosiy maqsadi bo'lgan fanlararo yondashuv bilan mos keladi. Bu o'quvchilarga bir mavzuni turli fanlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi. PAMPINGning amaliyotga asoslangan yondashuvlari STEAM texnologiyalaridan (robototexnika, 3D-modellashtirish, laboratoriya jihozlari) foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda STEAM+AI ya'ni sun'iy intellektning qo'shilishi ta'lim tizimida yangi yondashuvning paydo bo'lishiga olib keldi. STEAM va Sun'iy Intellekt (AI) integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu integratsiya o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi (7-rasm).



**7-rasm. Zamonaviy metodlar asosida STEAM loyiha darslarini tashkil etish metodikasi**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki tabiiy fanlarda integratsiyalashgan darslar va loyiha ishlarini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlardan biridir. Bu yondashuv bir nechta fanlarni yoki mavzularni bir-biri bilan bog'lab, o'quvchilarda ko'nikmalar va tushunchalarni yanada mustahkamroq shakllantirishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**STEAM ta'lim texnologiyalari vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari**» deb nomlanib, bu bobda STEAM ta'lim texnologiyasi vositasida 6-sinf tabiiy fanlarni o'qitishga oid pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni, tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning statistik tahlili batavsil tavsiflangan.

